

Jaloliddinov Nizomiddin Xusniddinovich
O‘zbekiston Milliy universitet doktoranti
Джалолиддинов Низомиддин Хусниддинович
докторант Национальный университет Узбекистана
Jaloliddinov Nizomiddin Khusniddinovich
PhD student of the National University of Uzbekistan

O‘ZBEKISTON AHOLI O‘LIMINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston aholi o‘limining geografik (hududiy) xususiyatlari va undagi o‘zgarishlar ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston aholi o‘limining hududlari bo‘yicha go‘daklar hamda onalar o‘lim sabablari va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omilar batafsil yoritilgan. Ishda aholi olimining geodemografik jihatlarining tarixiy va zamonaviylik ko‘rinishi baholangan va ulardagi o‘zgarishlarning sabablari tahlil qilingan.

Kalit so‘lar: Geodemografik tushunchalar, aholi o‘limi, promille, o‘limning umumiy koeffitsiyenti, aholi salomatligi, umr ko‘rish davomiyligi.

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СМЕРТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье рассматриваются географические (территориальные) особенности и изменения смертности населения Узбекистана. Подробно освещены причины смертности младенцев и матерей по регионам Узбекистана, а также факторы, влияющие на них. В работе дана оценка исторического и современного состояния геодемографических аспектов смертности населения и проанализированы причины изменений в них.

Ключевые слова: Геодемографические понятия, смертность населения, промилле, общий коэффициент смертности, здоровье населения, продолжительность жизни.

THE GEOGRAPHIC FEATURES OF CHILD MORTALITY IN UZBEKISTAN

Annotation: This article examines the geographical (territorial) characteristics and changes in mortality rates in Uzbekistan. It provides a detailed analysis of infant and maternal mortality causes by region in Uzbekistan, as well as the factors influencing them. The work assesses the historical and contemporary state of the geodemographic aspects of population mortality and analyzes the reasons for the changes observed.

Keywords: Geodemographic concepts, population mortality, per mille, general mortality rate, population health, life expectancy.

Kirish. Inson qanchalik uzoq yashashga urinmasin, oxir oqibat u o‘limga yuz tutadi. Bu tabiatning inkor etib bo‘lmas qonunidir. Biroq o‘limning sodir bo‘lish o‘rni, vaqti, sabablari va oqibatlari insoniyatni doimo qiziqtirib kelgan masalalardandir. Har qanday jamiyatda sodir bo‘ladigan o‘lim hodisalari uning qay darajada rivojlanganligi, farovonligi, turmush darajasi, tibbiyot sohasining ahvoli, sanitariya-epidemiologiya holati hamda iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy ahvolidan darak beradi. Har bir mamlakat o‘z aholisi salomatligi haqida qayg‘uradi, chunki,

aholi har qanday mamlakatning eng asosiy resursi hisoblanadi. O‘lim jarayoni aholi takror barpo bo‘lishining eng asosi ikkinchi qismi hisoblanib, avlodlar almashinuvida faol ishtirok etadi. Hududlarni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy, ayniqsa tibbiy xizmat ko‘rsatishning rivojlanishi asnosida aholining umr ko‘rish yoshi muntazam ko‘tarilib boraveradi.

O‘zbekiston aholi salomatligi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida o‘lim ko‘rsatkichlari sekinlik bilan kamayib bordi. Jumladan, mamlakatda 1991-2023-yillarda o‘limning umumiy koeffitsiyenti har mingta aholiga nisbatan 6,3 kishidan 4,5 kishiga yoki 1,8 kishiga kamaygan.

Umumiy o‘lim holatlarida turli sabablarga ko‘ra yildan-yilga oshib borayotgan bo‘lsa-da, bir yoshgacha bo‘lgan bollar o‘limi mustasno holatda pasayish holatidadir. Ya‘ni 2011-yildagi 10,8 promille holatidan 2023-yilda 8,9 promillega pasaygan. Aholi orasida yuz bergan o‘limning 61,9 foizi - qon aylanish tizimi kasalliklaridan bo‘lib so‘ngi 10 yil oralig‘ida yildan-yilga ko‘payib, jami 0,6 foizga ko‘tarilgan, shundan 7,9 foizi – o‘simta kasalliklaridan, 6,2 foizi - nafas olish organlari kasalliklaridan, 4,2 foizi - ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 5,2 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,2 foizi - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 11,4 foizi - boshqa kasalliklardan vafot etganligini guvohi bolamiz[1]. O‘lim ko‘rsatkichlari O‘zbekiston hududlari bo‘yicha taqsimlanganda har 1000 aholiga nisbatan olganda barcha hududlarni Z. N. Tojiyevaning “Aholi geografiyasi” kitobida keltirilgan, umumiy aholi o‘limiga tegishli bo‘lgan 4.3-jadvalida keltirilgan, o‘lim koeffitsiyentiga ko‘ra deyarli barcha viloyatlar 10 promilledan quyi darajani tashkil etib, “past” ko‘rsatkichga ega bo‘lib, viloyatlardagi tegishli ko‘rsatkichlar deyarli 4 va 5 promille oralig‘ini ifoda etmoqda. Lekin, ular ichida esa, eng yuqori ko‘rsatkichlar Toshkent shahri (8,1) hamda Toshkent viloyati (6,2) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa ushbu hududlarda yechimini kutayotgan talay masalalar borligidan dalolat beradi. Aholi o‘limiga olib keluvchi kasalliklar bilan og‘riq bemorlar soniga ko‘ra, ya‘ni aynan, qon va qon yaratuvchi organ kasalliklariga

chalingan bemorlar 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, qora (o'ta xavfli hudud) hududlar sifatida Andijon, Farg'ona, Samarqand viloyatlari anchayin yetakchilik qilmoqda. Andijon viloyatida har ming aholi hisobiga qon va qon yaratuvchi organ kasalliklariga chalingan bemorlar 280,4 kishini tashkil etib, hududlar orasida 1-o'rinni egallagan. Ushbu holat 2018-yildan 2023-yilga qadar 41,8 promillega ortgan. Xuddi shunday holat Farg'ona viloyatida har mingta aholining 228,1 ta holatida kuzatilgan. Uchinchi o'rinda esa Samarqand viloyati 221, 8 promille bilan yetakchilik qilmoqda. Yuqoridagi hududlar aholi tasnifida ham aholining zichlik darajasi bo'yicha ham oldingi o'rinlarda. Qizil xavfli hududida)hudud sifatida esa Surxondaryo (132,6 promille), Qoraqalpog'iston Respublikasi (131,0 promille) va Toshkent shahri (129,5 promille) kiritildi. Ushbu hududlarda ham bu ko'rsatkich anchagina yuqoridir. Surxondaryoda 2017-2023 yillar oralig'ida 114,4 dan 158,2 promillega (43,8 promillega) ko'payib, 25,6 promillega pasaygan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ham xuddi shunday so'nggi yillarda 4,1 promillega pasayish holati kuzatilgan lekin Toshkent shahrida esa 2018-yil (96,7 promille)dan 2023-yil (129,5 promille)gacha bo'lgan oralig'ida 32,8 promillega oshganligini kuzatamiz. Sariq (ogohlik hududi) hududga esa qolgan viloyatlar kiritildi. Ya'ni Toshkent viloyatida 97 promille, Namanganda 84,9 promille, Xorazm viloyatida 62,9 promille, Jizzax viloyatida 56,6 promille, Navoiy viloyatida 44,5 promille, Buxoro viloyatida 31,7 promille hamda Sirdaryo viloyatida esa 29,2 promilleni tashkil etadi. Aholining xavfli o'sma kasalliklariga chalinishi har 1000 holatga nisbatan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 22,1 tani tashkil etgani holda, ayollarda 13 promille, erkaklarda esa 10,5 promilledir. Aynan shular jumlasiga lab, og'iz bo'shlig'i, halqum o'smasi 0,4 dan 0,5 promillega oshgan; qizilo'ngach o'smasi 0,8 dan 0,7 promillega tushgan; oshqozon raki 1,8-1,9 dan 1,7 promillega tushgan; to'g'ri ichak o'smasi 0,6 dan 0,7 promillega ortgan; jigar o'smasi 1,0 va 0,9 oralig'ida beqaror ko'rsatkichga ega; sut bezi, bachadon bo'yni va tanasi, platsentasi, prostata bezi, siydik qopi o'smasi 6,4 dan 6,6 promillega ortgan. Aynan shu kasallik bo'yicha birinchi marta tashxis bilan

ro'yxatga olingan kasalliklar soniga ko'ra umumiy holatda Respublika bo'yicha 2017-yilda 25 197 ta holat kuzatilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 22 050 tani tashkil etib, 3 147 taga kamaygan. Viloyatlar bo'ylab birinchi beshlikda, har ming holatga ko'ra, Toshkent shahri (3 544 ta), Farg'ona viloyati (2 426 ta), Toshkent viloyati (2 064 ta), Andijon viloyati (2 002 ta), Samarqand viloyati (1 863 ta) lari, ikkinchi guruhga, Qashqadaryo viloyati (1 680 ta), Buxoro viloyati (1 584 ta), Namangan viloyati (1 421 ta), Xorazm viloyati (1 291 ta), Qoraqalpog'iston Respublikasi (1 252 ta) hamda Surxondaryo viloyati (1 162 ta) kiritiladi. Qolgan Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlari past ko'rsatkichlar bilan uchinchi guruhni hosil qiladi. Nafas olish organlari kasalliklari nuqtayi nazaridan, Yurtimizda umumiy holatda kasallanish ko'rsatkichlari anchayin yuqorilagan. Masalan, umumiy kasallanish holatining 6,2 foizini tashkil etgan holda, har 100 000 aholiga nisbatan 2017-yilda 23,2 kishini tashkil etgan bo'lsa, joriy yilga kelib, har yuz ming aholining 37 tasi aynan shu kasallik sababi bilan vafot etgan. Bu ko'rsatkich yaqin 4 yil mobaynida 13,8 kishiga ortganligi kuzatilgan.

Nafas olish organlari kasalliklari bilan kasallanishda birinchi marta kasallikka chalinish holatlari hududiy jihatlarining tavsifida, har ming holatga nisbatan, Toshkent shahri 726,4 kishini tashkil etib 2017- yilga nisbatan 233,8 kishiga kamaygan, Farg'ona viloyatida 525,2 kishi bo'lib oxirgi to'rt yil oralig'ida 122,9 kishiga kamaygan, Andijon viloyatida joriy ko'rsatkich 452,7 kishi bo'lib 2017-yilga nisbatan 48, 6 kishiga ortgan, Samarqand viloyatida 434, 5 kishini tashkil etgan holatda 41,95 kishiga ortgan, hamda Toshkent viloyatida esa 423,8 kishi kasallanganligini hisobga olsak so'ngi natijalar 425,5 kishidan, 1,7 kishiga kasallanish holatlari kamaygan.

Ushbu hududlarda aholining boshqa viloyatlardan ko'ra nisbatan salmog'i va zichligi ko'rsatkichlari hisobiga hamda bu omil aynan yuquvchanligi yuqori ekanligi bilan alohida tavsiflanadi. Boshqa viloyat hududlarida ham aholi soniga ko'ra mutanosib tarqalganligi o'rganilish davomida ma'lum bo'ldi. Masalan,

Qashqadaryoda har ming holatga ko‘ra 384,5 kishi bo‘lsa, Navoiy viloyatida bu 127,9 tani tashkil etadi.

Ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklari sabab aholi o‘limi ko‘rsatkichlarida ijobiy ko‘rsatkichlar mavjud. Chunki 2011- yilda umumiy o‘limning 5,8 foizini tashkil etgan bo‘lsa 2023-yilda esa 4,2 foizga kamaygan yillar oralig‘ida kamayish tendensiyasi 1,6 foizni tashkil etmoqda. Ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklari bevosita to‘g‘ri ovqatlanish jarayoni bilan uzviy bog‘liqlikni tashkil etadi. Respublikamiz hududida deyarli yuqori ko‘rsatkichlar bilan, noto‘g‘ri ovqatlanish jarayonlari kuzatiladi. Respublikamiz bo‘yicha aynan Ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklariga chalinish holatlari yuqori bo‘lgan; Toshkent shahri (691,8 promille), Qashqadaryo viloyati (484,1 promille), Toshkent viloyati (332,3 promille), Andijon viloyati (328,2 promille) hududlari yuqori ko‘rsatkichga egadir. Bunday ko‘rsatkichlarni yana ko‘plab keltirib o‘tishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston sharoitida yuqorida keltirilganligi kabi turli sabablarga ko‘ra Andijon viloyati 12,8 promille ko‘rsatkich bilan yuqori pog‘onani tashkil etgani holda 2-va 3-o‘rinlarda Toshkent shahri hamda Xorazm viloyatlari egallagan. O‘zbekistonda yuz bergan bolalar o‘limi jihatidan eng yuqori ko‘rsatkich, 58 foizi dan yuqori qismi perinatal davrda yuz berishi, chaqaloqlar parvarishini yurtimizda tegishli chora-tadbirlar asosida, puxta ishlab chiqilishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Q.X.abdurahmonov, X.X.Abduramanov, Demografiya: O‘quv qo‘llanma, “Noshir” Toshkent -2011, 117-b
2. Tojiyeva, Zulkhumor, et al. "Regional Characteristics in the Dynamics and Location of the Rural Population of the Republic of Uzbekistan." *E3S Web of Conferences*. Vol. 491. EDP Sciences, 2024.
3. Zulkhumor, T., Lutfullo, I., Muazzam, S., & Nizomiddin, J. (2022). Territorial characteristics of social and environmental problems in the location of the population of Uzbekis. *International Journal of Health Sciences*, 6(S3), 11026–11033. <https://doi.org/10.53730/ijhs.v6nS3.8555>

Internet saytlari:

1. <http://www.stat.uz>
2. <https://diss.natlib.uz>